



THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN–TURKEY RELATIONS TO THE LEVEL OF A COMPREHENSIVE STRATEGIC PARTNERSHIP

B. Kh. Imamov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in History

Karshi State Technical University

E-mail: bi832599@gmail.com

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: foreign policy, cooperation, relations, integration, democracy, science, culture, communications, state visit, security.

Received: 12.06.26

Accepted: 13.06.26

Published: 14.06.26

Abstract: This article highlights the development of relations between the two countries in all areas, based on historical evidence, as a result of the high-level official meetings and state visits of the heads of state in the formation of cooperative relations between the two countries. It has also been revealed with the help of new evidence that, as of today, relations between the two countries have advanced to the level of "Strategic Partnership".

O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MUNOSABATLARI KENG QAMROVLI STRATEGIK HAMKORLIK DARAJASIDA RIVOJLANISHI

B.X. Imamov

Dotsent, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

Qarshi davlat texnika universiteti

e-mail: bi832599@gmail.com

Qarshi, Uzbekistan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: tashqi siyosat, hamkorlik, munosabat, integratsiya, demokratiya, fan, madaniyat, aloqalar, davlat tashrifi, xavfsizlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikki davlat hamkorlik aloqalarini shakllanishida davlat rahbarlarining oliy darajadagi rasmiy uchrashuvlari va amalga oshirgan davlat tashriflari natijasida ikki davlat o‘rtasidagi barcha sohalardagi aloqalarning rivojlanishi tarixiy dalillar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, bugungi kunga kelib, ikki mamlakat o‘rtasida aloqalari “Strategik hamkorlik” bosqichiga ko‘tarilganligi yangi

dalillar yordamida ochib berilgan.

РАЗВИТИЕ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ НА УРОВНЕ ВСЕОБЪЕМЛЮЩЕГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПАРТНЕРСТВА

Б.Х. Имамов

Доцент, доктор философии (PhD) по историческим наукам

Каршинский государственный технический университет

E-mail: bi832599@gmail.com

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: внешняя политика, сотрудничество, отношения, интеграция, демократия, наука, культура, отношения, государственный визит, безопасность.

Аннотация: В данной статье на основе исторических свидетельств освещается развитие отношений между двумя странами во всех областях в результате официальных встреч на высоком уровне и государственных визитов глав государств, способствующих формированию отношений сотрудничества между двумя странами. Также, с помощью новых данных выяснилось, что на сегодняшний день отношения между двумя странами вышли на уровень «стратегического партнерства».

Kirish. O‘zbekistonning dunyoda keng e‘tirof etilgan salkam 34 yillik mustaqil taraqqiyot davrida har tomonlama puxta o‘ylangan hamda milliy manfaatlariga asoslangan, jahon hamjamiyatida mamlakatning obro‘-e‘tiborini mustahkamlashga qaratilgan tashqi siyosat yo‘li shakllandi. Darhaqiqat, O‘zbekistonning tashqi siyosati o‘tgan yillar mobaynida erishilgan amaliy tajribalarga tayanib, barcha xorijiy mamlakatlar va jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorlikni xalqimiz va yurtimiz manfaatlaridan kelib chiqib, ochiq, do‘stona va pragmatik tamoyillarga asoslangan holda olib borishi bilan bir qatorda XXI asrning tinimsiz o‘zgarib borayotgan xalqaro geosiyosiy maydonidagi vaziyatni hisobga olgan holda qurilmoqda. Ushbu siyosiy jarayonlarda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yangi “Strategik hamkorlik” bosqichida ko‘tarilganligi bilan asoslash mumkin. Ushbu vaziyatda xalqaro maydonda katta obro‘ga ega bo‘lgan Turkiya Respublikasi ham O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan oldi hamda o‘zaro diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan dastlabki davlatlardan biri bo‘ldi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, “Biz uchun yaqin do‘st va iqtisodiy sherik bo‘lgan Turkiya O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olganini”[1] ham e‘tirof etish maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston va Turkiya Respublikalari o‘rtasidagi siyosiy aloqalarni ilmiy tadqiq etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism. Maqolada asosan davlat rahbarlari, hamda bir nechta tadqiqotchilarning ishlariga o‘rin berilgan. Q.Rajabov va X.Bekmuratovning hammualliflikda O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlik tarixidan monografiyasi (Ражабов, Қ., Bekmuratov X. 2017), B.Imamov tomonidan yozilgan O‘zbekiston va Turkiya davlatlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (1991-2018 yy.) nomli monografiyasi (Imamov B. 2023), Said-Abdulaziz Yusupovning “Zamonaviy Turkiya: ko‘hna tarix va buyuk kelajak” nomli ommabop risolasi (Юсупов, С.А. 2018), Qahramon Rajabov va Bahodir Qandovning “Jahon mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar” nomli jahon mamlakatlari tarixi va geografiyasi hamda siyosiy boshqaruviga oid kitobi (Ражабов, Қ., Қандов, Б. 2015), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobi (Мирзиёев, Ш.М. 2021), Turkiya rahbari Rejep Tayyip Erdog‘anning “Dunyo yanada odil bo‘lishi mumkin” nomli kitobi (Erdoğan, R.T. 2021), Yelena Parubochayaning “Turkiy davlatlar sammitlari (1992-2001 – yillar): hamkorlik uchun real platformami?” va “Zamonaviy bosqichdagi Turkiy dunyo integratsiyasi” maqolalari (Парубочая, Е.Ф. 2011: 113-120), R.Veytselning “Turkiyaning Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat va ta'lim tizimiga ta'siri” (Вейцель, Р. 2014: 26-32), F.Yusupovaning “Turkiy Davlatlar Tashkilotining rivojlanish tarixi va xalqaro huquqdagi o‘rni” nomli ilmiy maqolasi (Юсупова, Ф. 2022: 33-35), M. Mustofayevning “Turkiy davlatlar tashkiloti: yangi global yondashuvlar va mintaqaviy muammolar” (Mustofaev, M. 2022: 105-121), A. Mirkomilovning “Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida madaniy-gumanitar hamkorlikning yangi imkoniyatlari” maqolalari (Mirkomilov, A. 2022, noyabr 11) va “Turkiy Kengash: Naxichevan kelishuviga 10 yil” nomli maxsus yubiley uchun chop etilgan kitob (Şahverdiyev, C., Dr. Veliyev, C. 2019) shular jumlasidandir.

O‘zbekiston va Turkiya Respublikalari hamkorlik aloqalari 2016 va undan keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti R.Erdog‘an o‘rtasidagi muntazam uchrashuvlar ikki davlat munosabatlarini yangi darajaga olib chiqdi. Zero, “O‘rtamizda ishonchsizlik va sovuqchilik davrlari bo‘lgan edi, lekin biz birlashib, ushbu muzlarni eritdik va bu sovuqchilik endi hech qachon qaytmaydi”[2], deb ta’kidladi O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev.

Xususan, ikki davlat rahbarlari 2016 yil noyabr oyida Rejep Erdog‘anning Samarqandga tashrifi chog‘ida va 2017 yil may oyida Pekinda bo‘lib o‘tgan “Bir makon, bir yo‘l” anjumani, shuningdek, sentyabr oyida Qozog‘istonda o‘tgan Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammiti doirasida muzokaralar o‘tkazdi. Shuningdek, sentyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida uchrashdi[3]. Uchrashuvlarda O‘zbekiston va Turkiya davlatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy,

investisiya, turizm, to'qimachilik, transport kommunikasiyasi va boshqa ko'plab sohalarda foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi va bu boradagi hamkorlikni kengaytirish tadbirlari ko'rildi.

Turkiya Respublikasi Prezidenti R.Erdog'an 2016 yil 17-18 noyabr kunlari Samarqand shahriga tashrif buyurib, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov (1938-2016) qabrini ziyorat qildi. Samarqand shahridagi Forumlar majmuasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Sh.Mirziyoyev bilan Turkiya Respublikasi Prezidenti R.Erdog'an o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi[4]. Savdo-iqtisodiy hamkorlik masalalari haqida ham kelishib olindi. 2015 yil yakunida davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 1,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu uchrashuv ikki davlat o'rtasida o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarilishida hamda barcha sohalarda aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Turkiya tashqi ishlar vaziri M.Chavusho'g'li 2016 yil oktyabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti davlatlarining Tashqi ishlar vazirlari Kengashining 43-sessiyasida ishtirok etdi. 2017 yil aprel oyida esa ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlarning 8-raundi bo'lib o'tdi[5].

O'z navbatida O'zbekiston hukumati delegatsiyasining 2017 yil fevral-mart oylarida Turkiyaga tashrifi chog'ida iqtisodiyotning turli yo'nalishlari bo'yicha 1 milliard AQSh dollarlik shartnomalar imzolangan bo'lsa, shu yilning may oyida Toshkent shahrida ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyasining to'rtinchi yig'ilishida barcha yo'nalishdagi hamkorlikning joriy holati tahlili hamda istiqbollari ko'rib chiqilib, 2 milliard AQSh dollarlik shartnomalar imzolandi. Ma'lumot uchun aytish kerakki, Hukumatlararo komissiya so'nggi bor 2008 yilda bunday yig'ilish o'tkazgan edi[6]. Shuningdek, yig'ilishda savdo sohasida ichki bozorlar talabidan kelib chiqib, o'zaro savdo hajmini bir necha barobar ko'paytirish, investitsiya sohasida etakchi turk kompaniyalari bilan birgalikda elektrotexnika, oziq-ovqat, to'qimachilik, farmasevtika, zamonaviy qurilish mahsulotlari va xalq iste'moli mollari sotishni yo'lga qo'yish bo'yicha bitimlar imzolandi.

O'zbekiston–Turkiya munosabatlarida harbiy-sanoat yo'nalishi ham muhim o'rinni egallaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 25-27 iyul kunlari mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Turkiya Respublikasi milliy mudofaa vaziri Nurettin Janiklini qabul qildi[7]. N.Janikli O'zbekistonga tashrifi jarayonida O'zbekiston va Turkiya mudofaa vazirliklari o'rtasida amaliy hamkorlik o'rnatish, jumladan, harbiy ta'lim sohasida qo'shma dasturlarni amalga oshirish bo'yicha harbiy ta'lim sohasida hukumatlararo hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Shuningdek, 2018 yildan boshlab O'zbekiston

Qurolli kuchlari harbiylarining Turkiya harbiy-ta'lim muassasalariga tayyorgarlik kurslariga yuborishni tashkillashtirish borasida kelishuvga erishildi.

Ushbu o'zaro hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi hukumatlararo uchrashuvlar va kelishuvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 25-26 oktyabr kunlari Turkiyaga davlat tashrifi uchun zamin yaratdi va bu ikki davlat o'rtasida o'zaro munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilganligini ko'rsatib berdi[8]. Tashrif davomida iqtisodiyot, savdo-sotiq, sanoat, bank-moliya, investitsiya, turizm, transport-logistika, sog'liqni saqlash kabi boshqa sohalardagi hamkorlik xususida kelishuvlarga erishildi. Ishbilarmon doiralari o'rtasida tashkil etilgan biznes forumda va yo'l infratuzilmalarini qurish, to'qimachilik mahsulotlari, elektr jihozlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, oziq-ovqat va agrosanoat tarmog'ida zamonaviy sanoat va logistika markazlari tashkil etish sohasida 3,5 milliard AQSh dollari hajmidagi 30 dan ortiq loyiha va bitimlar imzolandi[9].

O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017 yilda ilk marotaba Turkiyaga amalga oshirgan davlat tashrifi o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu tashrif, investitsiya, texnologiyalarni jalb qilish, xususan, turk ishbiarmonlari orasida qayta ishonch qozonish borasida ham siyosiy nuqtai nazardan, ham iqtisodiy nuqtai nazardan katta yutuq bo'ldi. Ushbu tashrif, birinchi navbatda, Turkiya Prezidenti bilan barqaror siyosiy aloqa o'rnatilganini ko'rsatdi. Turkiya bilan iqtisodiyotning turli sohasida: qurilish, engil sanoati, turizm va bank sohasida turk investisiyalari mamlakatimizga kirib kela boshlagani hozirgi tez sur'atlarda rivojlanayotgan O'zbekiston uchun manfaatlidir.

Zero, o'tgan yillar davomida o'zaro hamkorlikning yuqori nuqtasidan, nol nuqtaga qadar tushib ketganligi, ikki tomonning abadiy do'stlik ahdlashuvi, keyinroq xalqaro minbarlarda oshkora tanqidlar hamda Turkiya parlamenti tomonidan O'zbekistonni Turkiya do'stlashishi mumkin bo'lmagan davlatlar ro'yxatiga tushushiga qadar bo'lgan sinovli turg'unlik yillar va bugungi kunda yana strategik hamkorlik darajasiga chiqib, hamkorlikning yuqori nuqtasiga qarab intilayotganligi bilan tavsiflash mumkin. So'ngi yillardagi diplomatik munosabatlardagi o'zgarishlar ijobiy tus olayotganligi hamda 20 yil deganda, Prezident Mirziyoyevning Turkiyaga tashrifi, aloqalarni mustahkamlanishi, hamkorlikni yangi darajaga ko'tardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017 yil 19 dekabr kuni Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtiruvchi agentligi (TIKA) Prezidenti Serdar Chamni Toshkentda qabul qildi[10]. Ma'lumot uchun, 1992 yil 24 yanvarda (TIKA) tashkil etilgan bo'lib[10], u mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun yordam ko'rsatishni maqsad qilgan. O'zbekistonda 1993 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA) ikki davlat hamkorligini yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

O'tgan davr mobaynida mazkur agentlik tibbiyot hamda ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash, qishloq xo'jaligi va xususiy hamda o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarning hayotga tatbiq etilishida faol qatnashdi va 700 dan ortiq loyihalarni amalga oshirdi. 1993-2016-yillar davomida ushbu maqsadlarga TIKa 23 mln. AQSh dollari ajratdi. 2017 yilga kelib, Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA) tomonidan ko'plab loyihalarga 30 mln. AQSh dollaridan ziyod mablag' ajratildi[11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'on 2018 yil 29 aprel – 1 may kunlari davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi[12]. Shu kunga qadar, O'zbekiston va Turkiya o'rtasida 16 ta yuqori darajadagi tashriflar bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida davlat rahbarlari ikki qardosh mamlakat o'rtasidagi strategik munosabatlarning bugungi holati, ularni yanada rivojlantirish istiqbollari, savdo-iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish hamda chuqurlashtirish, ular bo'yicha aniq kelishuvlarga erishish masalalari muhokama qilindi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz Turkiya Respublikasiga ulkan siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatga ega bo'lgan, xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora ortib borayotgan yirik davlat sifatida qaraymiz"[13].

2018 yil 30 aprelda Turkiya Respublikasi Prezidentining parlament a'zolari oldida so'zlagan nutqi Oliy Majlis bilan Buyuk Millat Majlisi o'rtasidagi aloqalarni o'zaro tajriba hamda axborot almashish asosida rivojlantirishda yanada katta imkoniyatlar yaratdi[14]. Shuningdek, Turkiya Prezidenti Rejep Erdo'g'onni Parlamentga qarata so'zlagan nutqida yurtimizda olib borilayotgan siyosatni yuqori baholadi. Shuningdek, oliy martabali mexmon o'zbek xalqining shonli o'tmishi, ulug' ajdodlarimizning bashariyat sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasi haqida ham o'z fikrlarini bildirdi.

Shu kuni Shavkat Mirziyoyev va Rejep Erdo'g'on "O'zekspomarkaz"da tashkil etilgan "O'zbekiston–Turkiya" ishbilarmonlari biznes forumida ishtirok etdi. Biznes-forumda umumiy qiymati 3 milliard AQSh dollarga teng 50 dan ortiq yangi investisiyaviy qo'shma loyihani amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi[15]. Shuningdek, ikki davlat ishbilarmon doiralari vakillari o'rtasida hamkorlikni yanada kengaytirish, hamda ikki mamlakatda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish borasida fikrlar bildirildi.

O'zbekiston Turkiyaning Markaziy Osiyoda eng asosiy sheriklaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning ulkan bozori, tobora liberallashtirib borayotgan iqtisodiyoti, qulay investisiyaviy muhiti, tarixiy shaharlari, turizm maskanlari, muqaddas diniy qadamjolari Turkiyada katta

qiziqish uyg'otmoqda. Demak, hamkorlikni mustahkamlashdan har ikki tomon ham manfaatdor bo'lib, bu esa o'zaro munosabatlarning istiqboli yuksak ekanligidan dalolat beradi.

2018 yil 24 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi raisi Binali Yildirimni qabul qildi[16]. Uchrashuvda Turkiyaning etakchi kompaniyalari va banklari bilan hamkorlikda savdo, innovatsiyalar, energetika, transport, turizm, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarda investitsiya dasturlari va loyihalari amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Shuningdek, hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha memorandum va "Yo'l xaritasi" qabul qilindi.

Turkiyadagi nufuzli "Turcomoney" nashrining yillik reytingida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018 yilda "Yilning xorijiy davlat arbobi" deya e'tirof etildi. Bu haqda Istanbul shahrida Turkiya Buyuk Millat Majlisi raisi Binali Yildirim, Istanbul shahri xokimi Mevlyut Uysal, mamlakat xukumati parlamenti, jamoatchilik va ishbilarmon doira vakillari ishtirokida o'tkazilgan tantanali marosimda e'lon qilindi[17].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining yettinchi sammitida ishtirok etish uchun 2019 yil 14 oktyabr kuni Boku shahriga tashrif buyurdi hamda sammit doirasida Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Erdo'g'on bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi[18]. Turkiya Prezidenti O'zbekiston rahbarini Kengashga qo'shilganligi bilan tabriklab, bu qaror ikki tomonlama aloqalar va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladi.

Ikki davlat rahbarlarining doimiylik kasb etgan uchrashuvlari va muloqotlari natijasida hamkorlikni parlamentlararo orqali faollashtirish, savdo-sarmoyaviy sheriklik uchun yangi imkoniyatlar ochish, xalqaro hamjamiyat kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashish, ayniqsa Turkiya O'zbekistonning muhim 5 ta yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi. Xususan, 2017-2019 yillarda O'zbekistonda hamkor mamlakat sarmoyasi ishtirokidagi 750 ta korxonalar ro'yxatdan o'tib, ularning umumiy soni 1140 dan oshdi. 2017 yilda ikki davlat savdo aylanmasi 1,5 milliard dollardan ziyodni tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilga kelib 2 milliard 200 million dollardan oshdi, 2019 yilda esa 2,5 milliard dollardan oshdi[19]. Bu esa o'z navbatida o'zaro savdo aylanmasi hajmini ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Erdo'g'onning taklifiga binoan 2020 yil 19 fevral kuni ushbu mamlakatga tashrif buyurdi[20]. Davlatimiz rahbari Anqara shahrida Turkiya Respublikasining birinchi Prezidenti Mustafo Kamol Otaturk qabrini ziyorat qildi. Tashrifning asosiy tadbirlari dastlab Turkiya Prezidenti saroyida rasmiy kutib olish marosimi so'ngra ikki davlat rahbarlari tor doirada uchrashuv

o'tkazdilar. Unda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbarining Turkiyaga tashrifi doirasida shu kuni Anqarada Oliy darajadagi O'zbekiston – Turkiya strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bu kengash ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi muloqot formatidir. U 2018 yili davlat rahbarlarining Qo'shma bayonotiga muvofiq tuzilgan. Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari hamraisligida olib boradi hamda siyosat, xavfsizlik va mudofaa, savdo va iqtisodiyot, investitsiya, turizm, energetika, transport, madaniyat, ta'lim, fan va texnika, sog'likni saqlash kabi sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish strategiyasini belgilaydi. Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari birinchi yig'ilish natijalari to'g'risida Qo'shma bayonotni imzoladilar.

Ma'lumot uchun, shu kunga qadar o'zbek-turk hamkorligining shartnoma-huquqiy asosini "O'zbekiston va Turkiya o'rtasida doimiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma hamda savdo, iqtisodiyot, transport, turizm, madaniyat, shuningdek, terrorizm va giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha 123 ta xujjat tashkil etadi. Ulardan 12 tasi davlatlararo, 56 tasi xukumatlararo, 21 tasi idoralararo va 34 tasi esa boshqa yo'nalishga doir xujjatlardir[21].

O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi aloqalar o'tgan yetti yilini taxlil qiladigan bo'lsak, oliy darajadagi 7 ta o'zaro tashrif, shuningdek, mamlakatlar yetakchilarining xalqaro tadbirlar doirasidagi bir qator uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Ushbu uchrashuvlar ikki davlat rahbarlarining shaxsan har tomonlama manfaatli aloqalarni rivojlantirishga va hamkorlik kun tartibini yangi yo'nalishlar bilan to'ldirishga intilayotganidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida mamlakatlararo ishbilarmon doiralari uchun qulay shart-sharoit yaratish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash, qo'shma loyihalarni amalga oshirish, madaniy-gumanitar almashinuvlar kabi yo'nalishlarga kuchli turtki bermoqda. Ayniqsa, mamlakatlar nafaqat ikki tomonlama formatda, balki ko'p tomonlama mintaqaviy platformalar doirasida ham hamkorlik qilish uchun ulkan salohiyatni ro'yobga chiqarmoqda. Ular orasida Birlashgan Millatlar tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqalarni alohida ta'kidlash mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti bo'lgandan keyin tashqi siyosatda eng avvalo mintaqadagi davlatlar bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalar mustahkamlandi, shu bilan birga Osiyo va Yevropadagi rivojlangan davlatlar qatori Turkiya Respublikasi bilan ham o'zaro teng huquqli manfaatli hamkorlik aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Shu bilan birga xalqaro tuzilmalarda faol ishtirokchisiga aylanayotganligi hamda xalqaro institutlarda O'zbekiston obro'sini oshib borayotganligi so'zimiz tasdig'idir. O'zbekiston va Turkiya davlat rahbarlarining o'zaro uchrashuvlarida davlat va jamiyat

hayotining eng dolzarb yo'nalishlari bo'yicha masalalar muhokama etilib, aniq strategik maqsadlar asosida bitim va shartnomalar imzolanib, amaliyotga joriy etildi. Ayniqsa, O'zbekiston–Turkiya hamkorligi Markaziy Osiyoda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 390.
2. Quronov M. Qardoshlik va hamkorlik tantanasi // O'zbekiston ovozi. 2018 yil 3 may.
3. Imamov, Bobir Khojanazarovich HISTORY OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY // ORIENSS. 2023. №1-2. P.347.
4. Rajabov Q., Bekmuratov X. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlik tarixidan. – Toshkent: Tafakkur, 2017. – B.4.
5. Türkiye-Özbekistan İkili İşbirliği: Güçlenen İlişkilerde önemli Adım. 24.10. 2017. <https://ankasam.org/turkiye-ozbekistan-ikili-isbirligi-guclenen-iliskilerde-onemli-adim/>.
6. Imamov B. K. Diplomatic Relations between Uzbekistan and Turkey (1991-2018) //Alma mater (Вестник высшей школы). – 2021. – №. 8. – С. 85-90.
7. O'zbekiston Prezidenti Turkiya milliy mudofaa vazirini qabul qildi // Xalq so'zi. 2017 yil 27 iyul.
8. ИМАМОВ, Б. Х. (2019). Исторический аспект вопроса сотрудничества Узбекистана и Турции. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 71).
9. Imamov B. K. HISTORY OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1-2. – С. 346-358.
10. Tokay haber ajansi. Yatirim Finansman & Dis Ticaret Dergisi. Ankara. Ekim 2017. – S. 21.
11. ТИКА. Özbekistan-ТИКА projeleri tanitim kitopçig'i. Ankara, 2018. – S.10.
12. “Uzbekistan Is Turkey’s New Strategic Partner–Adviser” <https://ahvalnews.com/turkey-uzbekistan/> 2.05.2018.
13. Sotiboldiyev.B. O'zbekiston amaliy va konstruktiv muloqatga tayyorligini namoyish etdi // Xalq so'zi. 2018 yil 5 may.
14. Imamov B. K. Diplomatic Relations between Uzbekistan and Turkey (1991-2018) //Alma mater (Вестник высшей школы). – 2021. – №. 8. – С. 85-90.

15. Cumhurbaşkanı Erdoğan: Özbekistan ile çok uzun bir yolculuğa çıkıyoruz. <https://www.ahaber.com.tr/gundem/2018/04/30/cumhurbaskani-erdogan-ozbekistan-ile-cok-uz> 30.04.2018.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi raisini qabul qildi // Xalq so‘zi. 2018 yil 25 sentyabr.
17. Normatov K. Yangilanayotgan O‘zbekiston: Istiqbolli oydin yo‘l. <http://uzhurriyat.uz/2019/09/11/yangilanayotgan-uzbekiston-istiqboll>. 9.11.2019.
18. Элмуродов М. Азалий дўстлик ва қардошлик алоқаларининг янги даври. Халқ сўзи. 2019 йил 16 октябрь, № 214, 2-бет.
19. Ўзбекистон ва Туркия: Олий даражадаги стратегик ҳамкорлик халқларимиз манфатига хизмат қилади. Халқ сўзи. 2020 йил 18 февраль, № 35, 4-бет.
20. Ўзбекистон ва Туркия: Олий даражадаги стратегик ҳамкорликнинг янги босқичи. Халқ сўзи. 2020 йил 20 февраль, № 37, 1-бет.
21. Умиров Ш.Ўзбекистон – Туркия: бардавом қардошлик муносабатларнинг янги босқичи. Халқ сўзи. 2022 йил 29 март № 65, 2-бет.